



УДК:124.5:141.7

Nodira YALGASHEVA,
Jizzax shahridagi 16-umumta'lim maktabi direktori o'rinbosari
Siyosiy fanlar doktori F.Jurakulov taqrizi asosida

QADRIYATLAR FENOMENI VA IJTIMOY ONG: IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL

Annotatsiya

Maqolada qadriyatlar fenomeni va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Qadriyatlar ijtimoiy ong shakllanishidagi o'rni, ularning zamonaviy jamiyat sharoitida qayta talqin qilinishi hamda qadriyatlar transformatsiyasining ijtimoiy ongdagi sifat o'zgarishlari bilan bog'liq jihatlari yoritilgan. Tadqiqot qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi uzviy bog'liqlik jamiyat rivojining ma'naviy asosi ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: qadriyatlar, ijtimoiy ong, ijtimoiy falsafa, transformatsiya, dialektika.

ФЕНОМЕН ЦЕННОСТЕЙ И ОБЩЕСТВЕННОЕ СОЗНАНИЕ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В статье с социально-философских позиций рассматривается взаимосвязь ценностей и общественного сознания. Анализируются роль ценностей в формировании общественного сознания, их переосмысление в условиях современного общества и качественные изменения общественного сознания. Обосновывается положение о том, что связь ценностей и общественного сознания является духовной основой общественного развития.

Ключевые слова: ценности, общественное сознание, социальная философия, трансформация, диалектика.

THE PHENOMENON OF VALUES AND SOCIAL CONSCIOUSNESS: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Annotation

The article examines the relationship between values and social consciousness from a socio-philosophical perspective. It analyzes the role of values in shaping social consciousness, their reinterpretation in contemporary society, and qualitative changes in social consciousness. The study argues that the link between values and social consciousness constitutes a spiritual foundation of social development.

Keywords: values, social consciousness, social philosophy, transformation, dialectics.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida qadriyatlar masalasi ijtimoiy falsafaning eng dolzarb mavzulari qatoriga kirib bormoqda. Globallashuv jarayonlari, axborot muhitining kengayishi va madaniy ta'sirlarning tezkor almashinuvi natijasida qadriyatlar tizimi oddiy ma'naviy meros emas, balki ijtimoiy ong holatini belgilab beruvchi dinamik fenomen sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu ma'noda qadriyatlar bugun jamiyat qaysi yo'nalishda rivojlanadi degan masalani ham belgilab berishi bilan ham o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy va falsafiy ahamiyat kasb etadi.

Qadriyat tushunchasining fenomenologik ahamiyati shundaki, u ijtimoiy voqelikning inson ongida qanday idrok etilishini va qanday baholanishini ifodalaydi. Qadriyatlar orqali ijtimoiy ong jamiyat uchun maqbul bo'lgan meyorlar, ideallar va ma'naviy yo'nalishlarni shakllantiradi. Nemis faylasufi Maks SHeler qadriyatlarini inson tajribasida mustaqil ma'no kasb etuvchi, ijtimoiy voqelikka ma'naviy baho berish imkonini beruvchi fenomen sifatida talqin qiladi[1]. Bu yondashuv qadriyatlarini faqat ijtimoiy shartlangan hodisa emas, balki ijtimoiy ongni ichki jihatdan tashkil etuvchi ma'naviy mezon sifatida anglashga asos yaratadi.

Bugungi ijtimoiy ong holati esa muayyan ziddiyatlar bilan tavsiflanadi. Bir tomondan, an'anaviy qadriyatlar jamiyat barqarorligini ta'minlovchi ma'naviy tayanch sifatida saqlanib qolmoqda. Ikkinchi tomondan esa zamonaviy axborot muhiti va ommaviy madaniy ta'sirlar ijtimoiy ongda qadriyatlar iyerarxiyasining o'zgarishiga olib kelmoqda. Natijada "ijtimoiy ong qanday bo'lishi kerak?" degan meyoriy tasavvur bilan "ijtimoiy ong amalda qanday?" degan real holat o'rtasida sezilarli tafovut yuzaga kelmoqda.

Mazkur tafovut jamiyat rivoji uchun muayyan xavf omillarini ham keltirib chiqaradi. Qadriyatlar tizimining izchil emasligi, ma'naviy mezonlarning nisbiylashuvi ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik ongi va jamoaviy birdamlikning susayishiga olib kelishi mumkin. Fransuz sotsiologi Emil Dyurkgeym ijtimoiy ong va umumiy qadriyatlarini jamiyatni birlashtiruvchi asosiy kuch sifatida baholab, ularning zaiflashuvi ijtimoiy beqarorlikka sabab bo'lishini ta'kidlagan[2]. Ushbu qarash bugungi sharoitda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Kelajak avlod oldida turgan eng muhim masalalardan biri — ular qanday qadriyatlar asosida ijtimoiylashadi va qanday ijtimoiy ong modelini shakllantiradi, degan savoldir. Bu tanlov jamiyatning kelgusi taraqqiyot yo'nalishlarini belgilab beruvchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ijtimoiy-falsafiy asosda tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lgan ilmiy vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi qadriyatlar fenomeni va ijtimoiy ong o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda ijtimoiy-falsafiy tahlil va dialektik yondashuv metodlari asosida qadriyatlar ijtimoiy ong shakllanishi va rivojiga ko'rsatayotgan ta'siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Bilamizki, qadriyatlar tushunchasi falsafiy tafakkur tarixida inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni anglashda muhim o'rin tutib kelgan. Qadriyatlar inson faoliyatining ma'naviy-meyoriy asosini tashkil etib, ijtimoiy voqelikka nisbatan munosabat, baholash va ma'no berish jarayonlarida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda qadriyatlar ijtimoiy falsafada

faqat axloqiy yoki madaniy kategoriya sifatida emas, balki jamiyat hayotining mazmuniy yo'nalishlarini belgilab beruvchi universal fenomen sifatida talqin qilinadi.

Falsafiy nuqtai nazardan esa, qadriyat tushunchasining kelib chiqishi insonning dunyoga ma'no izlashga bo'lgan ehtiyoji bilan bevosita bog'liqdir. Inson nafaqat mavjud voqelikni idrok etadi, balki uni baholaydi, unga ma'no yuklaydi va o'z faoliyatini muayyan ideallar asosida yo'naltiradi. Qadriyatlar ana shu baholash va ma'no berish jarayonining natijasi sifatida shakllanadi. Shu bois qadriyatlar ontologik jihatdan mavjud voqelik bilan bog'liq bo'lsa-da, o'z mazmuniga ko'ra ijtimoiy ongning aksiologik qatlamida qaror topadi.

Ijtimoiy hayotda qadriyatlar jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ma'naviy meyorlar vazifasini bajaradi. Ular orqali jamiyatda maqbul va nomaqbul xulq-atvor shakllari belgilanadi, ijtimoiy maqsadlar va umumiy ideallar shakllantiriladi. Qadriyatlar jamiyatning tarixiy tajribasini o'z ichiga olgan holda, avloddan-avlodga o'tadi va ijtimoiy ongda barqaror ma'naviy orientirlar sifatida mustahkamlanadi. Shu jihatdan qadriyatlar ijtimoiy birdamlik va jamoaviy identifiklni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Qadriyatlarining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochishda ularning funksiyalariga e'tibor qaratish muhim. Avvalo, qadriyatlar ma'naviy funksiyani bajaradi. Ular insonning ichki dunyosi, ma'naviy pozitsiyasi va hayotga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Ma'naviy qadriyatlar orqali inson o'z faoliyatini ma'no bilan to'ldiradi, maqsadlarini belgilaydi va o'zini jamiyat a'zosi sifatida anglaydi.

Ikkinchidan, qadriyatlar madaniy funksiyaga ega. Qadriyatlar madaniyatning mazmuniy o'zagini tashkil etib, jamiyatning madaniy an'analari, ramzlari va ma'naviy merosini ifodalaydi. Madaniy qadriyatlar orqali jamiyat o'z tarixiy xotirasini saqlaydi va o'zligini anglaydi. Shu ma'noda qadriyatlar madaniyatning barqarorligi va davomiyligini ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, qadriyatlar ijtimoiy funksiyani bajaradi. Ular ijtimoiy munosabatlarni meyoriy jihatdan tartibga solib, jamiyat a'zolari o'rtasida o'zaro ishonch, hamkorlik va mas'uliyatni shakllantiradi. Ijtimoiy qadriyatlar fuqarolik ongi, ijtimoiy faollik va jamoaviy manfaatlarga sodiqlikni rag'batlantiradi. Bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim shart hisoblanadi.

Qadriyatlar va jamiyat barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlik ijtimoiy falsafada alohida ahamiyatga ega. Barqaror jamiyat, avvalo, o'z qadriyatlar tizimiga ega bo'lgan jamiyatdir. Qadriyatlar tizimi izchil va barqaror bo'lgan holatda ijtimoiy ongda aniq meyorlar va ma'naviy orientirlar shakllanadi. Aksincha, qadriyatlar iyerarxiyasining buzilishi, ma'naviy mezonlarning nisbiylashuvi ijtimoiy beqarorlikka, jamoaviy ishonchning susayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining faqat ma'naviy emas, balki ijtimoiy-strategik omili sifatida ham namoyon bo'ladi.

Shu tariqa, qadriyat tushunchasi ijtimoiy falsafada inson, jamiyat va ijtimoiy ong o'rtasidagi murakkab munosabatlarni anglashda asosiy nazariy vositalardan biri hisoblanadi. Qadriyatlarining falsafiy mohiyatini ochish ijtimoiy ongning shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi hamda zamonaviy jamiyat oldida turgan ma'naviy va ijtimoiy muammolarni tahlil qilish uchun nazariy poydevor yaratadi.

Ijtimoiy ong ijtimoiy falsafaning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, u jamiyat hayotining ma'naviy, g'oyaviy va ma'noiy jihatlarini ifodalaydi. Ijtimoiy ong orqali jamiyat a'zolari ijtimoiy voqelikni anglaydi, unga munosabat bildiradi va muayyan ijtimoiy maqsadlar hamda meyorlar asosida o'z faoliyatini yo'naltiradi. Shu ma'noda ijtimoiy ong

jamiyatning ma'naviy holati, ijtimoiy tafakkur darajasi va tarixiy taraqqiyot yo'nalishlarini aks ettiruvchi muhim nazariy kategoriya hisoblanadi.

Ijtimoiy falsafada ijtimoiy ong tushunchasi individual ongdan farqli ravishda jamiyatga xos bo'lgan umumiy tasavvurlar, g'oyalar, qadriyatlar va meyorlar tizimi sifatida talqin qilinadi. U jamiyatning tarixiy tajribasi, madaniy merosi va ijtimoiy munosabatlari negizida shakllanadi. Ijtimoiy ong muayyan davrga xos bo'lgan dunyoqarash, ijtimoiy ideallar va ma'naviy orientirlarni o'z ichiga olgan holda, jamiyat hayotida barqaror ma'no maydonini vujudga keltiradi[3].

Ijtimoiy ongning mazmuni ko'pqirrali bo'lib, u bir qator tarkibiy jihatlarini qamrab oladi. Ular qatoriga axloqiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik va falsafiy ong shakllari kiradi. Bu tarkibiy qismlar ijtimoiy voqelikning turli sohalarini anglash va baholashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur shakllar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ijtimoiy ongning yaxlit tizimini tashkil etadi. Ularning o'zaro ta'siri jamiyatda muayyan ma'naviy muhit va ijtimoiy kayfiyatning shakllanishiga olib keladi.

Individual ong va ijtimoiy ong o'rtasidagi nisbat ijtimoiy falsafada muhim nazariy masalalardan biri hisoblanadi. Individual ong shaxsning shaxsiy tajribasi, bilimi va his-tuyg'ulari bilan bog'liq bo'lsa, ijtimoiy ong jamiyatda shakllangan umumiy ma'naviy qadriyatlar va tasavvurlar tizimini ifodalaydi. Biroq bu ikki daraja bir-biridan uzilgan holda mavjud bo'lmaydi. Aksincha, individual ong ijtimoiy ong ta'sirida shakllanadi, ijtimoiy ong esa alohida shaxslarning ongli faoliyati orqali boyib boradi. Nemis faylasufi Georg Hegel jamiyat ongini «obyektiv ruh» sifatida talqin qilib, uni individual onglardan ustun turuvchi, biroq ular orqali amal qiladigan ma'naviy voqelik deb hisoblagan[4].

Ijtimoiy ongning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni uning faol ta'sir ko'rsatish qobiliyati bilan belgilanadi. Ijtimoiy ong nafaqat mavjud ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi, balki ularni baholaydi, tanqid qiladi va o'zgarishlarga undaydi. Jamiyatdagi islohotlar, ijtimoiy harakatlar va ma'naviy yangilanishlar, avvalo, ijtimoiy ongda yuzaga kelgan o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ladi. Shu bois ijtimoiy ong jamiyat rivojining passiv natijasi emas, balki uning faol omili sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy jamiyat sharoitida ijtimoiy ong global axborot muhiti, madaniy xilma-xillik va ijtimoiy kommunikatsiyaning yangi shakllari ta'sirida jadal o'zgarib bormoqda. Bu esa ijtimoiy ongning mazmuniy yangilanishi, qadriyatlar tizimining qayta ko'rib chiqilishi va jamiyat taraqqiyotining yangi ma'naviy yo'nalishlarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy ongni ijtimoiy falsafiy kategoriya sifatida tahlil qilish zamonaviy jamiyat oldida turgan ma'naviy va ijtimoiy muammolarni anglash uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'zaro ta'sir ijtimoiy falsafaning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan ushbu o'zaro bog'liqlik orqali jamiyatning ma'naviy qiyofasi, ijtimoiy xulq-atvor meyorlari va taraqqiyot yo'nalishlari shakllanadi. Qadriyatlar ijtimoiy ong uchun mazmuniy asos bo'lib xizmat qilsa, ijtimoiy ong esa qadriyatlarining jamiyat hayotida amal qilish mexanizmini ta'minlaydi.

Avvalo, qadriyatlar ijtimoiy ong shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ijtimoiy ong muayyan qadriyatlar tizimi asosida mazmun kasb etadi, chunki jamiyat a'zolarining voqelikka munosabati, baholash mezonlari va ma'naviy yo'nalishlari aynan qadriyatlar orqali belgilanadi. Qadriyatlar ijtimoiy ongga meyoriy xarakter bag'ishlab, «nima to'g'ri», «nima nomaqbul» ekanini belgilab beradi. Shu ma'noda

qadriyatlar ijtimoiy ongning mazmuniy yadrosini tashkil etib, uning barqarorligi va uzluksizligini ta'minlaydi.

Biroq mazkur munosabat bir tomonlama emas. Ijtimoiy ong orqali qadriyatlar doimo qayta talqin qilinadi, yangilanadi va tarixiy sharoitga moslashadi. Jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar, madaniy ta'sirlar va axborot muhitining kengayishi natijasida qadriyatlar o'z mazmunini to'liq yoki qisman qayta ko'rib chiqadi. Shu jarayonda ijtimoiy ong qadriyatlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki ularni faol ravishda qayta ishlovchi ma'naviy makon sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat qadriyatlarning jamiyat hayotidagi dinamik tabiatini ko'rsatadi.

Qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tahlil qilishda "qadriyat → ong → ijtimoiy xulq-atvor" zanjiri alohida ahamiyatga ega. Qadriyatlar ijtimoiy ongda muayyan tasavvur va ideallar shaklida mustahkamlanadi, ijtimoiy ong esa ularni insonlarning amaliy faoliyati va xulq-atvorida ifodalashga olib keladi. Masalan, adolat, mas'uliyat yoki jamoaviy manfaat kabi qadriyatlar ijtimoiy ongda ustuvor o'rin egallagan holda, jamiyat a'zolarining qaror qabul qilish jarayonlariga va ijtimoiy munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu tariqa qadriyatlar abstrakt tushunchalar darajasida qolib ketmay, ijtimoiy amaliyotda real kuchga aylanadi.

Ushbu o'zaro ta'sir dialektik xarakterga ega. Bir tomondan, qadriyatlar ijtimoiy ongni shakllantiradi va uning yo'nalishini belgilaydi. Ikkinchi tomondan esa ijtimoiy ong qadriyatlarni qayta baholaydi, ayrimlarini mustahkamlaydi, ayrimlarini esa inkor etadi yoki ikkinchi darajaga surib qo'yadi. Bu jarayonda vorisiylik va yangilanish, barqarorlik va o'zgarish bir vaqtning o'zida namoyon bo'ladi. Dialektik yondashuv aynan shu qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi orqali ijtimoiy taraqqiyotni anglash imkonini beradi.

Nemis faylasufi Yurgen Habermas ijtimoiy ong va qadriyatlar o'rtasidagi munosabatni kommunikativ amal orqali shakllanuvchi ma'naviy kelishuv sifatida talqin qilib, ularning jamiyatdagi ahamiyatini ijtimoiy o'zaro anglash jarayonlari bilan bog'laydi[5]. Ushbu yondashuv qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'zaro ta'sirning faqat meyoriy emas, balki ijtimoiy muloqotga tayangan faol jarayon ekanini ko'rsatadi.

Shu tariqa, qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'zaro ta'sir jamiyat hayotida markaziy o'rin tutib, uning ma'naviy qiyofasi va rivoj yo'nalishlarini belgilab beradigan dialektik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonni ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish jamiyatdagi ma'naviy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy taraqqiyotning mazmuniy asoslarini anglash uchun muhim nazariy poydevor yaratadi.

Zamonaviy jamiyat sharoitida qadriyatlar tizimi chuqur transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu transformatsiya, avvalo, ijtimoiy hayot sur'atining tezlashuvi, global madaniy aloqalarning kengayishi va axborot muhitining hukmron omilga aylanishi bilan bog'liq. Qadriyatlar endi faqat an'ana, vorisiylik yoki tarixiy tajriba asosida emas, balki jadal o'zgarib borayotgan ijtimoiy voqelik ta'sirida shakllanmoqda. Natijada qadriyatlar mazmunida nisbiylik, ko'p ma'nolilik va vaziyatga moslashuv tendensiyalari kuchaymoqda.

Axborot muhiti ushbu transformatsiyaning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy

tarmoqlar va global media makoni ijtimoiy ongda qadriyatlar shakllanish va tarqalish mexanizmlarini o'zgartirdi. Agar ilgari qadriyatlar asosan oila, mahalla, ta'lim muassasalari orqali uzatilgan bo'lsa, bugun ular virtual makon orqali tezkor va nazorat qilinmaydigan shaklda tarqalmoqda. Bu holat ijtimoiy ongda qadriyatlar barqaror iyerarxiyasi emas, balki o'zgaruvchan va fragmentar tizim shakllanishiga olib kelmoqda.

Zamonaviy jamiyatda an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar o'rtasidagi nisbat ham murakkab xarakter kasb etmoqda. An'anaviy qadriyatlar jamiyatning ma'naviy o'zagi sifatida saqlanib qolmoqda, biroq ularning amaliy ta'sir doirasi qisqarayotgan holatlar ham kuzatilmogda. Zamonaviy qadriyatlar esa individual erkinlik, shaxsiy muvaffaqiyat, pragmatik manfaat kabi mezonlarni oldinga chiqarib, ijtimoiy ongda ustuvor o'rin egallamoqda. Bu jarayonda ziddiyat emas, balki dialektik o'zaro ta'sir namoyon bo'ladi: an'anaviy qadriyatlar zamonaviy shaklda qayta talqin qilinadi, zamonaviy qadriyatlar esa mahalliy ma'naviy an'analar bilan uyg'unlashishga majbur bo'ladi.

Ijtimoiy ongda sifat o'zgarishlari aynan shu uyg'unlik yoki uyg'unlikning yo'qligi bilan bog'liq. Agar qadriyatlar transformatsiyasi izchil va ma'naviy mezonlarga tayangan holda kechsa, ijtimoiy ongda yangilanish, ochiqlik va ijtimoiy faollik kuchayadi. Aksincha, qadriyatlar tizimida uzilishlar, ma'naviy oriyentirlarning yo'qolishi ijtimoiy ongda beparvolik, fragmentatsiya va ma'naviy bo'shliq holatlarini keltirib chiqaradi. Bu holat ayniqsa yosh avlod ongida tez namoyon bo'ladi.

Zamonaviy jamiyatda qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi munosabatni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy ong endi faqat an'anaviy meyorlarga tayangan holda shakllanmaydi, balki global axborot oqimlari ta'sirida doimiy ravishda qayta quriladi. Nemis sotsiologi Manuel Kastels axborot jamiyati sharoitida ma'no va qadriyatlar tarmoqli kommunikatsiya orqali shakllanishini ta'kidlab, ijtimoiy ongning yangi tipini tasvirlaydi[6]. Bu yondashuv zamonaviy ijtimoiy ongni anglashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu tariqa, zamonaviy jamiyat sharoitida qadriyatlar transformatsiyasi ijtimoiy ongda sifat jihatdan yangi holatlarni vujudga keltirmoqda. Bu jarayon jamiyat taraqqiyoti uchun ham imkoniyatlar, ham xavflar yaratadi. Masalaning ijtimoiy-falsafiy tahlili qadriyatlar va ijtimoiy ong o'rtasidagi muvozanatni saqlash, ma'naviy barqarorlikni ta'minlash va jamiyat rivojining mazmuniy yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Mazkur maqolada qadriyatlar fenomeni va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qadriyatlar jamiyat hayotida tasodifiy yoki ikkinchi darajali hodisa emas, balki ijtimoiy ongning mazmuniy yo'nalishlarini belgilab beruvchi asosiy ma'naviy-meyoriy tizim sifatida namoyon bo'ladi. Qadriyatlar orqali jamiyat o'z tarixiy tajribasini, ma'naviy ideallarini va ijtimoiy maqsadlarini shakllantiradi hamda avlodlar o'rtasida ma'naviy vorisiylikni ta'minlaydi.

АДАБИЁТЛАР

1. Шелер М. Формы знания и общество. — М.: Республика, 1994. — 447 с. — С. 73–78.
2. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. — М.: Канон-пресс, 1996. — 432 с. — С. 101–108.
3. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. — М.: Медиум, 1995. — 323 с. — С. 33–40.
4. Гегель Г.В.Ф. Феноменология духа. — М.: Наука, 2000. — 495 с. — С. 256–262.
5. Хабермас Ю. Теория коммуникативного действия. — М.: Весь Мир, 2001. — 507 с. — С. 85–92.
6. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. — М.: ГУ ВШЭ, 2000. — 608 с. — С. 54–61.